

BOJXONA TO'LOVLARINI HISOBLASH, UNDIRISH VA DAVLAT BYUDJETIGA O'TKAZISHNING AYRIM MASALALARI

Pardayev Tulkin Nasirovich

Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti dotsenti,
iqtisod fanlari nomzodi
e-mail: tulkinpardayev65@mail.ru

Farrux Furqatovich Farxodov

Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti
o'qituvchi
e-mail: farrux.farxodov@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada bojxona organlarining fiskal faoliyatni amalga oshirishdagi roli ochib berilgan. O'zbekiston Respublikasida bojxona to'lovlarini hisoblash, undirish va davlat byudjetiga o'tkazish jarayonlari tahlil etilgan. Mamlakat fiskal barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonlarini yanada jadallashtirish maqsadida belgilangan vazifalarni hal etishda bojxona to'lovlarini o'rni va ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: aksiz solig'i, bojxona to'lovlari, bojxona yig'implari, davlat byudjeti, import bojxona boji, qo'shilgan qiymat solig'i, tashqi savdo.

Аннотация

В статье раскрывается роль таможенных органов в осуществлении фискальной деятельности. Анализируются процессы исчисления, взимания и зачисления таможенных платежей в государственный бюджет Республики Узбекистан. Показаны роль и значение таможенных платежей в решении поставленных задач по обеспечению фискальной стабильности страны и ускорению процессов экономического развития. Даны научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию механизма взимания таможенных платежей.

Ключевые слова: Акцизный налог, таможенные платежи, таможенные сборы, государственный бюджет, ввозная таможенная пошлина, налог на добавленную стоимость, внешняя торговля.

Abstract

The role of customs authorities in the implementation of fiscal activities is revealed in the article. The processes of calculating, collecting and transferring customs fees to the state budget in the Republic of Uzbekistan are analyzed. The role and importance of customs payments in solving the tasks set in order to ensure the fiscal stability of the country and to accelerate the processes of economic development have been shown. Scientifically based suggestions and recommendations on improving the mechanism of collecting customs fees are given.

Key words: Excise tax, customs payments, customs fees, state budget, import customs duty, value added tax, foreign trade.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan xalqaro savdoni rivojlanishi, mamlakat importi tarkibining optimallashtirishi va milliy mahsulotlarni ishlab chiqarishning takomillashuvi hamda uning miqdorini ko'payishi tashqi iqtisodiy faoliyatning yanada erkinlashuviga sabab bo'lmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko'tarish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish va tarkibiy o'zgartirishlarni jadallashtirishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmonida mamlakatimizni rivojlantirishni 2030-yilga bo'lgan strategiyasida maqsadlar va ularning bajarilishi bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari belgilandi. Uning 46-maqsadi "Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish" – 2030-yilda samaradorlik ko'rsatkichi: konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 %dan va kelgusi yillarda 3 %dan past bo'lgan miqdorda bo'lishini ta'minlash" kabi O'zbekiston Respublikasida fiskal barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq vazifalar belgilandi [1].

Yuqoridagi maqsadlarga, jumladan, davlat byudjeti taqchilligini qisqartirishda bojxona organlari tomonidan bojxona to'lovlarini hisoblash, undirish va davlat byudjetiga o'tkazish jarayonlaridagi muammolarni o'rganish, ularni bartaraf etish va bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berish hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. Chunki, bojxona organlari bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tishda bojxona to'lovlarini undirish orqali davlat byudjeti daromadlar qismini shakllantirishda bevosita ishtirok etib, o'zining fiskal vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bojxona to'lovlarining mazmun-mohiyati va ularni tashqi savdoni tartibga solishda qo'llashning nazariy asoslari bo'yicha dunyo olimlari turlicha fikrlarni bildirib o'tishgan. Quyida ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz:

D.A. Slepov va Ye.V. Chuykovlarning nazarida bojxona to'lovlari bu bojxona organlari xodimlari tomonidan hisoblanadigan va federal byudjetning daromadlar qismini to'ldiruvchi manbadir [2. s.192].

V.Yu. Jukovesning fikricha, bojxona to'lovlari deganda, tovarlarni bojxona ittifoqining bojxona chegarasi orqali olib o'tishda bojxona organlariga majburiy ravishda shaxs tomonidan to'lanishi kerak bo'lgan barcha to'lovlarning yig'indisi tushuniladi [3.s.98].

O.Yu. Bakayev bojxona to'lovlari: "Belgilangan tartibda bojxona organlari tomonidan undiriladigan va tovarlarni bojxona ittifoqining bojxona chegarasi orqali olib o'tishda to'lanadigan soliq va byudjetga tushadigan soliq va soliqdan tashqari

tushumlar vazifasini bajaradigan majburiy to'lovlaridir",- deb o'z ta'rifini bergan [4.s.28].

Amalga oshirgan ilmiy tadqiqotlarimiz natijalarining ko'rsatishicha, V.G. Svinuxov o'zining ikki ilmiy ishida bojxona to'lovlariga bir-biridan farq qiluvchi ikkita mutlaqo boshqa-boshqa ta'riflarni bergan. Jumladan, u o'z ilmiy-tadqiqot ishlarining birida, bojxona to'lovlari bu tovarlarni olib kirish yoki eksport qilishda bojxona organlari tomonidan olinadigan va tovarlarni olib kirish yoki eksport qilishning zaruriy sharti bo'lgan majburiy to'lov sifatida deb ta'rif bergan bo'lsa, xuddi shu muallifning o'zi o'zining boshqa bir asarida bojxona to'lovlari tushunchasiga ta'rif berar ekan: "Bojxona to'lovlari bojxona organlari tomonidan olinadigan, bojxona chegaralari orqali tovarlarni olib o'tish bilan bevosita bog'liq bo'lgan soliqlar va yig'imlardir" - deya ta'kidlaydi. Shu bilan birga, ularni to'lash bojxona protseduralarini qo'llashning muhim sharti ekanligini ko'rsatib o'tgan [5.s.251].

Shu o'rinda, bizning fikrimizcha, bojxona to'lovlariga nisbatan berilgan ta'riflarni hisobga olgan holda, ularning umumiy kesishuv nuqtalari, umumiy jihatlari, o'ziga xos xususiyatlari va yuqoridagi tarixiy taraqqiyotda o'z o'rniga ega bo'lib borgan bojxona to'lovlariga ularning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ifodalovchi ta'rifni berishga urinish ma'lum bir ahamiyatga ega. Bizningcha, yuqorida qayd etilganlarni inobatga olgan holda bojxona to'lovlariga ularning mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi quyidagi eng sodda ta'rifni berishimiz mumkin: bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovar-moddiy boyliklar uchun Davlat byudjetining daromadlar qismi uchun undiriladigan to'lovlar bojxona to'lovlari deyiladi[6.277b.].

Bizning fikrimizcha, bojxona to'lovlariga nisbatan berilgan va ularning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yana to'liqroq ochib berishga xizmat qiladigan bu ta'rifimiz, avvalo, o'zining soddaligi, oddiyligi, tushunarliqligi va mohiyatni o'zida to'liq ifodalanganligi bilan yuqorida berilgan o'zgacha ta'riflardan farqlanadi.

METODOLOGIYA

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda bojxona to'lovlariga oid ilmiy va amaliy adabiyotlar, shu jumladan, O'zbekistondagi va xorijiy mualliflarning ishlari o'rganildi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi.

Bojxona qo'mitasining oxirgi 5 yillik bojxona to'lovlari bo'yicha statistik ma'lumotlar guruhlandi va solishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Bojxona to'lovlari bojxona chegarasi orqali tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari tomonidan tovarlar olib o'tilganda undiriladigan majburiy to'lov bo'lib, tovarlar olib o'tishning asosiy sharti hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni bojxona to'lovlari bilan tartibga solish orqali tashqi savdoning samarali tarkibini ta'minlash, ichki tovarlarni ishlab chiqaruvchilarni chet elning nosog'lom raqobatidan himoyalash, Davlat byudjeti daromadlar qismini shakllantirish kabi vazifalar bajariladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bojxona to'lovlarini to'lash majburiyati tovar bojxona to'lovlarini to'lash nazarda tutilgan bojxona rejimiga joylashtirilganda va tovarlar erkin muomalaga

chiqarib yuborilganidan keyin bojxona nazoratini amalga oshirish natijasida bojxona to'lovlari qo'shimcha hisoblangan taqdirda yuzaga keladi.

Bojxona to'lovini hisoblash, undirish va davlat byudjetiga o'tkazish bosqichlarini o'z ichiga olgan jarayon bojxona to'lovlarini undirish mexanizmi deyiladi. Bojxona to'lovlarini undirish mexanizmi O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach bojxona tizimi tashkil etilgan paytdan boshlab takomillashib kelmoqda. Respublika hududiga import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirish, bojxona to'lovining o'z vaqtida va to'liq to'lanishini ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, bojxona to'lovlari stavkalarini o'zgarishi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar shular jumlasidandir.

Natijada bojxona organlari tomonidan davlat byudjetiga o'tkazilayotgan tushumlar miqdori yildan yilga oshib bormoqda. Jumladan, 2023-yil mobaynida Davlat byudjetiga 58,4 trln. so'm bojxona to'lovlari o'tkazilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan (41,3 trln. so'm) 3,4 barobarga ko'paygan. (1-rasm).



1-rasm. Bojxona organlari tomonidan Davlat byudjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlarining yillar kesimida tahlili (trln.so'm)¹

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan 2019-2023-yillarda bojxona to'lovlari tushumining Davlat byudjeti daromadlar qismidagi ulushining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bu davrda uning ulushi 9,7 %ga oshgan. Buni quyida keltirilayotgan 1-jadval ma'lumotlaridan ham ko'rsak bo'ladi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida bojxona to'lovlari tushumining Davlat byudjeti daromadlar qismidagi ulushi dinamikasi, %da²

T/r	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Davlat byudjeti daromadlar qismida bojxona to'lovlari tushumining ulushi	15,3	18,6	20,2	22,8	25,2

¹ Rasm mualliflar tomonidan Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

² Jadval mualliflar tomonidan Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Bojxona to'lovlarini o'sishiga import tovarlarining hajmini ko'payishi, tovarlarning bojxona qiymatini aniqlanishini takomillashayotganligi, bojxona to'lovlari stavkalarini o'zgarishi, erkin almashtiriladigan valyuta kursining o'zgarishi, bojxona sohasida avtomatlashtirilgan axborot tizimidan samarali foydalanilayotganligi, bojxona sohasi bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani takomillashayotganligi kabi asosiy omillar ta'sir etgan.

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan 2019-2023 yillarda Davlat byudjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlari tarkibi o'zgarishining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2023 yilda Davlat byudjeti daromadiga o'tkazilgan jami bojxona to'lovlari tarkibida: qo'shilgan qiymat solig'i 80,0 foizni, import bojxona boji 16,0 foizni, aksiz solig'i 0,1 foizni, bojxona yig'implari va boshqa to'lovlar 3,9 foizni tashkil etgan. Holbuki, 2019 yilda bu ko'rsatkichlar, mos ravishda, 78,5%, 13,5%, 4,6% va 3,4 % bo'lgan edi.

Bu yillarda jami Davlat byudjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlari tarkibida aksiz solig'i 4,5 % ga kamaygan va aksincha, import bojining ulushi 2,5 % ga, qo'shilgan qiymat solig'i 1,5 foizga, bojxona yig'implari va boshqa to'lovlari 0,5 foizga oshgan (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan Davlat byudjeti daromadlariga o'tkazilgan bojxona to'lovlari tarkibining o'zgarishi, (%da)¹

T/r	Bojxona to'lovlari turlari	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Qo'shilgan qiymat solig'i	78,5	79,8	82,1	84,1	80,0
2.	Import bojxona boji	13,5	14,3	14,3	12,5	16,0
3.	Aksiz solig'i	4,6	3,7	0,9	0,7	0,1
4.	Bojxona yig'implari va boshqa to'lovlar	3,4	2,2	2,6	2,7	3,9
Jami		100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Bojxona kodeksining 328-moddasiga muvofiq to'langan bojxona to'lovlaridan olingan mablag'lar tovarlar chiqarib yuborilgan kundan yoki to'lanishi bojxona rasmiylashtiruviga bog'liq bo'lmagan bojxona to'lovlari uchun bojxona organi tomonidan harakatlar yoki tartib-taomillar bajarilgan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida bojxona organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga o'tkaziladi.

Davlat byudjetiga o'tkazish hududiy bojxona boshqarmalari tomonidan Iqtisodiyot va Moliya vazirligi g'aznachiligiga taqdim etilgan g'azna memorial orderlari asosida amalga oshiriladi.

2022-yildan boshlab bojxona to'lovlarini Davlat byudjetiga o'tkazishda asos bo'lib xizmat qiluvchi g'azna memorial orderlarining qog'oz shaklidan voz kechilib,

^{1 1} Jadval mualliflar tomonidan Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

g'azna memorial orderlar Iqtisodiyot va Moliya vazirligi g'aznachiligiga elektron tarzda yuborilishi amaliyotga joriy etildi. Bu, o'z navbatida, bojxona to'lovlarini Davlat byudjetiga o'tkazish jarayonlarini o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi.

Biroq, bugungi kunda Davlat byudjetiga o'tkazilishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarini hisoblash va elektron g'azna memorial orderlarini yaratish inson omiliga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Jumladan, bojxona to'lovlarini Davlat byudjetiga o'tkazish uchun hududiy bojxona boshqarmasi xodimi dasturdan undirilgan bojxona to'lovlarini yuklab olishi va kerakli jadval shakliga o'tkazgan holda dasturga qayta yuklashi lozim. Mazkur jarayonda xodim tomonidan bojxona to'lovlarining jadval shaklidagi ro'yxatida bir qator amallar olib borilishi lozim. Bu esa inson omiliga bog'liq holda xato va kamchiliklar paydo bo'lishi xavfini yuzaga keltirishi bilan bir qatorda ortiqcha vaqt sarflanishiga ham olib keladi.

Bojxona to'lovlarini Davlat byudjetiga o'tkazilish jarayonini optimallashtirish bo'yicha Davlat byudjetiga o'tkazilishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarini hisoblash va elektron g'azna memorial orderlarini yaratish dastur tomonidan amalga oshirilishi taklifi kiritiladi.

Bojxona kodeksning 328-moddasiga muvofiq bojxona to'lovlari bojxona organlarining qonunchilikka muvofiq shu maqsadlar uchun ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga to'lovchi tomonidan to'lanadi.

To'langan va undirilgan bojxona to'lovlarining hisobi bojxona organlarining axborot tizimida yuritiladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan bojxona to'lovlari ularning JSHSHIR (jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami) raqamiga ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga kelib tushadi. Bu jarayonda jismoniy shaxs tomonidan to'lov tizimlari orqali bojxona to'lovi amalga oshirilayotganda JSHSHIR raqam xato kiritilishi oqibatida to'langan bojxona to'lovlari bojxona organlarining axborot tizimida noto'g'ri rekvizitlar bilan ko'rinishi yoki umuman ko'rinmaslik holatlari paydo bo'ladi.

Davlat tassarufigidagi tashkilotlar bojxona to'lovlarini hududiy g'aznachilik boshqarmalari tomonidan amalga oshiradi. Bunda to'langan bojxona to'lovlari tashkilotning bojxona organlaridagi shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga emas (tashkilot STIR – Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami), balki Moliya vazirligi g'azna hisobvaraqlariga yoki tashkilotga xizmat ko'rsatuvchi bank g'azna hisobvaraqlariga kelib tushadi. Mazkur bojxona to'lovlari hududiy bojxona boshqarmasi tomonidan har safar dastur orqali tashkilot shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga o'tkazish zaruriyatini tug'diradi.

Shuningdek, bugungi kunda bojxona to'lovlaridan qochishning eng asosiy sxemalaridan biri bu invoyslarni qalbakilashtirish yoki soxta invoyslar taqdim etish hisoblanadi. Bu orqali qonunbuzarlar bojxona to'lovlarini kam to'lashni maqsad qilib faktura qiymatlari, TIF TN kodlari va tovarlarning kelib chiqish mamlakati to'g'risidagi ma'lumotlarni soxtalashtirishadi.

Tovarlarni erkin muomalaga chiqarilgandan keyin bojxona to'lovlaridan

qarzdorlikni kelib chiqish yo‘nalishlarining 2019-2023-yillar kesimidagi tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, tovarlarni bojxona qiymatini noto‘g‘ri belgilashda va imtiyozlar noto‘g‘ri qo‘llanilishi bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan qarzdorliklarini asosiy qismini tashkil qilgan. Shu bilan birga, tovar kelib chiqish sertifikatini bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan qarzdorliklar yildan yilga oshganini ko‘rishimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval

Bojxona organlarida qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarining kelib chiqish sabablari tarkibi(%da)¹

T/r	Kelib chiqish yo‘nalishlari	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Imtiyozlar noto‘g‘ri qo‘llanilishi	56,7	63,4	25,0	44,1	40,60
2.	Bojxona qiymati noto‘g‘ri belgilanishi	11,7	16,4	45,5	37,4	33,72
3.	Tovar kelib chiqish sertifikatini bo‘yicha	5,4	7,6	8,0	4,4	9,98
4.	TIF TN kodi noto‘g‘ri belgilanishi	20,2	5,2	15,5	6,6	4,85
5.	Boshqa holatlar	6,3	7,4	6,0	7,5	10,85
Jami		100,0	100,0	100,0	100,0	100

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, imtiyozlar noto‘g‘ri qo‘llanilishi, tovarlarni bojxona qiymatini belgilashda, tovar kelib chiqish sertifikatini va TIF TN kodi noto‘g‘ri belgilanishi bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlari aniqlanishining asosiy qismi invoyslarni qalbakilashtirish yoki soxta invoyslar taqdim etish orqali amalga oshirilgan. Bojxona organlarining asosiy maqsadlaridan biri bu — bojxona chegarasidan olib o‘tiladigan tovarlardan bojxona to‘lovlari o‘z vaqtida va to‘g‘ri to‘lanishini ta‘minlashdir.

Bojxona to‘lovlaridan qochish nafaqat davlat byudjetiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, balki ichki bozorni noto‘g‘ri raqobatdan himoya qilishga jiddiy ta‘sir qiladi. Qalbaki invoyslar va soxta hujjatlar orqali bozordagi adolatli raqobat buziladi. Bu esa iqtisodiyotning barqarorligiga, bojxona to‘lovlarining to‘liq undirilishiga va davlat byudjetiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Import-eksport ma‘lumotlarini solishtirish orqali ushbu huquqbuzarliklarni aniqlash juda ko‘p vaqt va energiya talab qiladi. Mavjud aniqlash metodlari ba‘zi muhim jihatlarni e‘tibordan chetda qoldirmoqda, chunki hujjatlar ko‘pincha qog‘oz shaklida bo‘ladi va ularni qo‘lda tekshirish kerak. Bu esa inson xatolarga yo‘l qo‘yish mumkinligini anglatadi.

Bojxona to‘lovlarini to‘liq va to‘g‘ri undirilishini ta‘minlash va tashqi savdo bojxona statistikasi ma‘lumotlaridagi noaniqliklarni aniqlovchi “Mirror-Trade” dasturidan foydalanish taklif etiladi. Bu dastur orqali bojxona to‘lovlari to‘liq undirilishi, bojxona to‘lovlarini to‘lashdan qochish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni aniqlashning samarali tizimi yaratiladi.

“Mirror-Trade” dasturining imkoniyatlari:

Avtomatlashtirilgan tahlil. Dastur ma‘lumotlarni avtomatlashtirilgan ravishda tahlil qiladi, bu esa inson xatolarini kamaytiradi va tezkorlikni oshiradi.

¹ Jadval mualliflar tomonidan Bojxona qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tayyorlangan.

Axborotlar bazasi: Dastur import-eksport ma'lumotlarini keng qamrovdagi axborotlar bazasida saqlaydi va solishtirishni osonlashtiradi.

Maqsadli tekshiruvlar: Dastur orqali aniqlangan noaniqliklarni maxsus tekshiruvlar uchun maqsadli ravishda tanlab olish mumkin.

Real vaqt rejimida ishlash: "Mirror-Trade" dasturi real vaqt rejimida ishlaydi, bu esa huquqbuzarliklarni aniqlash jarayonini tezlashtiradi.

Hamkorlik imkoniyatlari: Dastur bojxona organlari bilan axborot almashinuvini yaxshilaydi, bu esa huquqbuzarliklarni samarali aniqlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy tadqiqotni bajarish jarayonida tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining dastlabki pul mablag'larini to'lash jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha quyidagi taklif kiritiladi:

1. "Sustoms pay" mobil ilovasini ishlab chiqish. Bunda:

1.1. Jismoniy shaxslar mazkur to'lov tizimidan ro'yxatdan o'tishi, ro'yxatdan o'tish jarayonida rezidentlar uchun "ONE ID" tizimdan ma'lumotlar integratsiyasini ta'minlash. Norezidentlar uchun ro'yxatdan o'tish yakuni bo'yicha individual ro'yxat raqamini berish tartibini joriy etish. Shuningdek, norezidentlar tomonidan bojxona to'lovlarini to'lash jarayonini soddalashtirish uchun mobil ilovani xalqaro to'lov tizimlari bilan integratsiyasini ta'minlash.

1.2. Yuridik shaxslar tomonidan elektron raqamli imzo orqali ro'yxatdan o'tishni ta'minlash. Bojxona to'lovlarini to'lash jarayonini qulaylashtirish uchun yuridik shaxsning tijorat bankdagi asosiy hisob raqami bilan integratsiyani amalga oshirish.

1.3. Mobil ilova orqali tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining dastlabki pul mablag'larini to'lash, harakatlantirish va qaytarish bo'yicha barcha operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratish.

2. Bojxona to'lovlaridan qochish va invoyslarni qalbakilashtirish juda jiddiy muammo bo'lib, uni hal qilish uchun samarali choralar ko'rish lozim. "Mirror-Trade" dasturini joriy etish va uning imkoniyatlaridan foydalanish orqali bojxona to'lovlarini to'liq va to'g'ri undirilishi hamda bojxona huquqbuzarliklarini samarali aniqlash mumkin bo'ladi. Bu esa davlat byudjetiga tushumlarni oshirishga, iqtisodiyotni barqarorlashtirishga va adolatli raqobatni ta'minlashga yordam beradi.

Yuqoridagi takliflarni inobatga olib, bojxona to'lovlarini Davlat byudjetiga o'tkazish va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining dastlabki pul mablag'lari harakatlanishida axborot texnologiyalarni qo'llashni takomillashtirish bojxona to'lovlarini davlat byudjetiga o'tkazish jarayonlarida qulayliklar yaratadi va bu jarayonlarni sarf qilinadigan bojxona xodimlarining vaqti tejalishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисидаги ПФ-158-сонли Фармони.

2. Слепова Д.А., Чуйкова Е.В. Таможенные платежи, исчисляемые таможенными представителями как источник формирования доходов

федерального бюджета Российской Федерации. Экономика и управление: новые вызовы и перспективы. 2016;(11):192–196.

3. Жуковец В.Ю. Таможенное право в вопросах и ответах. М. 2005. с 98.

4. Бакаева О.Ю. Правовое регулирование финансовой деятельности РФ. Саратов. 2005 с 28.

5. Свинухова В.Г. Таможенное дело. М. 2005 г. С. 251.

6. Пардаев Т.Н. Иқтисодиётнинг глобаллашуви шароитида божхона тўловларини қўллашни такомиллаштириш истиқболлари. Ж. Иқтисодиёт ва таълим. / 2022 йил 2-сон. 277 б.